



## “ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR SHAXSINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH”

Namangan Davlat Universiteti Pedagogika- psixologiya fakulteti  
Defektalogiya ( Logopediya) yo’nalishi 3- bosqich talabasi  
**Halimova Ozoda Ma’murjon qizi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga pedagogik-psixologik ta’lim berish, ularni ruxiyatini o‘rganish ularni jamiyatga muvaffaqqiyatli uyg‘unlashishini taminlash masalalari yoritilib mavzuga doir xulosalar bildirildi.

**Kalit so‘zlar:** Analitik-sintetik, dinamiklik, ob’yektivlik, surdopedagogik, patopsixologik, kar va zaif, psixonevralogiya, korreksiya, neyrofizologiya, patalogiya, belgi, nuqson.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены вопросы педагогического просвещения детей с нарушениями слуха, изучения их психики, обеспечения в общество, сделаны выводы по теме.

**Ключевые слова:** аналитическая синтетическая динамика объективность глухопедагогическая патопсихологическая глухота и слабость психоневрология коррекция нейрофизиодогия патология знак дефект .

**Abstract:** In this article, the issues of providing pedagogical and psychological training to children with hearing impairment, studying their psyche, ensuring their psyche, ensuring their successful integration unto society, and conclusions on the topic were made.

**Keywords:** Analytical-synthetic dynamic objectivity deaf-pedagogical pathopsychological deaf and weak psychoneurology correction neurophysiology pathology sign defect.

Inson ruhiyatini atroflicha o'rganish kishidan har taraflama bilim va malakalar bo'lishi talab etilishi bilan bir qatorda bilim, yetarlicha hayotiy tajriba ham talab etiladi. Bir necha yil bolalar bilan ishlagan o'qituvchi, tarbiyachilar o'z sinflaridagi bolalarni atroflicha o'rganib oladilar. Maktablardagi pedagogik kuzatishdan tashqari shaxs ruhiyatini o'rganishning turli usullari mavjud. Dastlab birinchi sinfga kirmoqchi bo'lgan o'qituvchi bo'lajak o'quvchilarningshaxsiy hujjatlari bilan tanishib chiqadi. Bolalar haqidagi tibbiy ko'rsatmalar bilan yaqindan tanishadi. Tibbiy xulosalarni, tushunchalarni yetarlicha o'zlashtirish uchun yordamchi maktab xodimlari bunday bilimlarni yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. Bolaning ruhiy taraqqiyoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar bolalarning ota-onalaridan olinadi. Juda ehtiyyotkorlik bilan, ota-onaning qalbiga shikast yetkazmasdan, nuqsonli bolasi haqidagi zaruriy ma'lumotlar yig'iladi. Ayniqsa, ota-onalardan bolaning umumiyligi rivojlanishidan tashqari, nuqson yuz bergandan keyingi o'ziga xos, nuqsonli rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar juda qimmatli va diagnostik ahamiyatga ega. Yordamchi maktablardagi o'qituvchi va tarbiyachilarning ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion, sog'lomlashtirish ishlarining barchasi shu ma'lumotlarga asoslanadi.

Bolalar haqidagi tegishli ma'lumot olingandan keyin, ular bilan ta'lim-tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Maxsus maktablardagi kar bolalarni atroflicha o'rganish uchun qator, maxsus tajriba-psixologik uslubiyatlardan, usullardan foydalanish mumkin. Tajriba haqidagi umumiyligi psixologiyadan ham ma'lum. Tajriba o'tkazish oddiy kuzatishdan farq qiladi. Bunda tajriba o'tkazuvchi o'rganilishi kerak bo'lgan ruhiy jarayonlarni turli yo'llar bilan, ma'lum reja o'tkazish orqali o'qituvchi qator ruhiy jarayonlarning holati, ularning o'zgarib turishi, turli qiyinchiliklar yuz berishi, ularning sabablarini sekin-asta tushunib boradi. Tajriba barcha fanlarda eng mukammal tekshirish usullaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nuqsonli ruhiy holatlarni o'rganish uchun tajriba o'tkazish juda zarurdir. Maxsus maktablarda ishlayotgan surdopedagoglar qator tajriba

uslubiyatlarini bilish, ularni o‘rinli ishlata olish, tajriba natijalarini tahlil qila olish, baholay bilish, yangi uslubiyatlar yarata bilish lozim. O‘qituvchi aqli zaif o‘quvchilarga uyga berilayotgan topshiriqlarning hajmini ham tajriba o‘tkazib bilib olish mumkin. Darslik materiallarining qaysi qismini sinfda, qaysi qismini uyda yechish mumkinligini ham tajriba orqali aniqlab olish mumkin. Ayrim o‘quvchilar noaniq sabablarga ko‘ra dars materiallarini o‘zlashtira olmasalar ham o‘qituvchi maxsus tajriba orqali buning sabablarini ham o‘rganishi mumkin. Bu borada X.S.Zamskiy va A.R.Luriya ayrim ishlarida bat afsil ma’lumotlar keltirilgan. Surdopedagog patopsixologik uslubiyatlarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa, shifokor-asixonevrologlar uchun yaqin yordamchi hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasidagi munozarali vaqtarda oligofrenopedagog tegishli, malakali yordam berishi mumkin. Qator surdopedagoglar eksperimental patopsixologik muassasalarda, ruhiy shifoxonalarda psixonevrologik muassasalarda xizmat qilmoqdalar. Surdopsixologiyada mavjud bo‘lgan ob’yektiv usullar orqali aqli zaif bola ruhiyatining o‘ziga xos tomonlari, ularning rivojlanish qonuniyatları haqida ma’lumotlar beradi. bolalarni o‘rganish surdopedagogning asosiy ishlaridan biri hisoblanadi. Ruhiyatni o‘rganish atroficha amalga oshirilishi kerak. Kar bolalar shaxsini psixologik, pedagogik, tibbiy o‘rganish umumiylar tarzda amalga oshirilgandagina, yagona bir xulosaga kelish mumkin. Barcha ruhiy jarayonlarni o‘rganish jarayonida ob’yektivlik, dinamiklik, analistik-sintetik, atroflilik, individual yondashish prinsiplariga rioya qilishimiz darkor. Ob’yektivlik deganda, aqli zaif bolalar ruhiyatini o‘rganish ishlari real sharoitda, hayot jarayonida olib borilishi tushuniladi. Dinamiklik esa, aqli zaif bola, o‘quvchini o‘rganish uning rivojlanishida, taraqqiyoti amalga oshiriladi.

Analitik–sintetik prinsipda esa, ruhiy jarayonlar, holatlar atroficha, har tomonlama bog‘liqlik holatida o‘rganishni nazarda tutadi. Kar bola ruhiyatini o‘rganayotgan oligofrenopedagog o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yish kerak:

- bola ruhiyatining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash,

- bola ruhiyatidagi nuqson tuzulishini aniqlash,

- bolaning aqliy rivojlanish darjasini va xususiyatlarini o'chish,

- kar bola ruhiyatidagi ijobiy tomonlarni topish,

- kar bola bilan olib boriladigan korreksion, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning samarali, mahsuldor sharoitlarini belgilab olish. Kar bola ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish asosida ular bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmuni, mohiyati belgilanadi. Kar bolalarning shaxsiy xujjatlari bilan tanishib borib, o'qituvchi, tarbiyachi bolaning kasallik tarixi, kasallik qoldirgan asorat xususiyatlarini tahlil qiladi. Kar bolalar ruhiyatini o'rghanishning asosiy usullaridan biri bolani kuzatish. Maqsadga muvofiq, rejalilik, bir tizimdalik, tabiiylik bu usulning asosiy, ijobiy xususiyatlaridandir. Kuzatish usullari orqali tajriba o'tkazuvchi kar bolaning bilish faoliyatlarini xususiyatlarini, o'quv malakalarini egallash xususiyatlarining kechishi, malaka va ko'nikmalarining egallanishi, shaxsiy sifatlarining namoyon bo'lishini bilib olishiga imkoniyat tug'iladi. Pedagog bolani turli faoliyatlarda: o'yin, o'qish, mehnat, ijtimoiy foydali ishlarda o'zlarini tutishlariga qarab, kuzatib o'rghanadi. Bolani kuzatish haqidagi ma'lumotlar mahsus kuzatuv daftarida bayon etilib boriladi. Shuni ta'kidlash joizki, kuzatish uchuli qator ijobiy tomonlari bilan birga, ayrim kamchiliklari, salbiy tomonlari ham mavjud. Bunga misol qilib kuzatish usulining pedagogi passiv xolatga tushirib faqat tegishli ma'lumotlarni belgilab borish, yozib olishdangina nari o'tmaydi. Shu sababli, pedagog bolani psixologo-pedagog o'rganganda faqatgina kuzatish usuli bilan kifoyalanib qolmasligi kerak. Bola ruhiyatini o'rghanishning asosiy usullaridan yana biri, tajriba o'tkazishdir, bunda tajriba o'tkazuvchi faol holatda bo'lib, maxsus sharoit yaratib, o'zi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlarni o'rghanadi. Tajriba orqali aniq, konkret savollarga javoblar olinadi. Tajriba o'tkazilish shakli, turi, mazmuniga ko'ra tabiiy va laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin. Laboratoriya tajribasi maxsus sharoitda, turli asbob-uskunalardan, o'quvning texnika vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Masalan, perimetri bilan ko'rish doirasini,

esteziometr bilan taktik sezgilar chegarasini, kamerton bilan tovush balandligini taxistoskop bilan esa idrok hajmi va tezligini, xotiraning aniqligi va mustahkamligini aniqlash mumkin. Demak, laboratoriya usulida sun’iy tarzda bizga o‘rganish kerak bo‘lgan ruhiy jarayonni namoyon bo‘lishini qayd qilib boradigan asbob-uskunalar talab etilar ekan.

Tabiiy tajribada esa, yuqoridagi aytib o‘tilgan vositalar talab etilmaydi. Tabiiy tajriba bolalarga tanish bo‘lgan oddiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Uni o‘tkazilayotganda quyidagi holatlarga e’tibor qaratish kerak:

1. Oddiy ruhiy faoliyatni modellashtirish.
2. Olingan ma’lumotlarni sifat jihatdan tahlil qilishga diqqat, e’tiborni qaratish.
3. Tajribada ishlash vaqtini, ish hajmini, bolalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar sonini e’tiborga olish.

Tajriba ob’yektiv va real faktlarni hisobga olishni talab etadi. Qarorda bolaning harakatlari, bolaning bergen savollari, uning nutqi, hissiyoti, yo‘l qo‘ygan xatolariga munosabati, bolaga ko‘rsatilgan yordam mazmuni bayon etilishi talab etiladi. Eksperiment o‘tayotgan vaqtda eksperimentator ishga aralishishi, qayta so‘rashi, bolaga berilgan topshiriqlarni qaytarishi, bolani rag‘batlantirishi, savollar berishi, maslahat berishi va boshqa holatlarga ruxsat beriladi. Ammo, eksperimentator tajriba o‘tkazuvchi sergap bo‘lmasligi talab etiladi. Bolaning tajribada qiynalishi, fikrlarining tarqalishi, umumlashtira olmasligi mantiqiy fikrlar tuza olmasligi oqibatida kelib chaqadi. Tajriba, kuzatish va suxbat birgalikda olib boriladi. Suxbat maqsadining aniqligi, tushunarligi, berilayotgan savollarning kundaligi bilan ajralib turishi kerak. Tajriba o‘tkazuvchi bolaning diqqatini o‘ziga qaratib, topshiriqlarga javob berishga xoxish uyg‘otishi kerak. Bolaga quyidagi tarzda savollar berishi mumkin. Necha yoshdasan? Isming kim? Kimlar bilan yashaysan? Yashash joying qayerda? Ota-onang nima ish bilan shug‘ullanishadi? Bu kabi savollar orqali bolani birmuncha tinchlantirib, u bilan

muloqotga kirishishga tayyorlaniladi. Busiz tajriba boshlash yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Chunki, bola xayajonlanib, qo‘rqib bilgan javoblarni ham bermasligi mumkin. Anli zaif bolalar ruxiyatini o‘rganish uchun turli anketalardan ham foydalaniladi. Berilayotgan anketa savollari aniq, puxta, mazmunli bo‘lishi talab etiladi. Olingan javoblar chuqur taxlil qilinadi, ularni qator matematik usullar orqali ham taxlil etilishi ahamiyatlidir. Bu usullarga: alternativ, korrelyasiron va dispersion usullar kiradi. Alternativ taxlil orqali bolada biz o‘rganayotgan sifatlar bor yo‘qligini aniqlashga, ochib berishga yordam beradi. Korrelyasion taxlil ruxiy xolatlarning belgilari orasida o‘zaro bog‘liqlik borligini aniqlashga yordam beradi. Dispersion taxlil bola ruxiyatiga ta’sir etadigan omillarning biz o‘rganayotgan belgiga ta’sir rolini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki: Yuqorida bayon etilgan qator usullar bola ruhiyatini o‘rganishning asosiy usullari sanaladi, bolalar ish faoliyati natijalarini o‘rganish, taxlil etish esa qo‘srimcha usullarga kiradi. Bolalarning yozma ishlari, chizgan rasmlari, yasagan buyumlari, mexnat maxsulotlari kiradi. Ruxiyatni o‘rganishning alohida, o‘ziga xos samarali usullaridan biri testlardan foydalanishdir. Shuni e’tirof etish juda o‘rinliki, testlar ruhiyatni o‘rganishning yaxshi usuli ekanligi uzoq vaqtlar davomida bizning mamlakatimizda yetarlicha tan olinmadidi. So‘nggi yillarda bu kamchiligidimiz to‘g‘rulanmoqda. Testlar asosan tekshirilayotgan bolada u yoki bu sifat egallagan bilimlar darajasi, bolaning teyyorgarlik darajasi, bolaning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Turlicha tuzilishga, mazmunga ega bo‘lgan testlarni qo‘llash orqali bolalarning aqliy koeffisiyeiti aniqlanadi. Albatta, testlarni qo‘llash bizga kerak bo‘lgan barcha yetarli darajada bera olmasligi mumkin. 1969 yilda Vashingtonda psixiatrlarning kengashida bolalarning aqliy koeffisiyentini faqatgina testlardan foydalanmasdan, balki qo‘srimcha tarzda boshqa usullardan ham foydalanish tavsiya etildi. Testlarni qo‘srimcha vositalar sifatida qo‘llash

taklif qilindi. Asosiy usul esa, bolani birmuncha uzoq muddat tibbiy, pedagogik, psixologik tekshirish o‘rinli ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

### **Foydalingan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.Выкова, L.M Vishnevskaya. Ye.Ye. Metodika razvitiya rechi gluxix shkolnikov v mladshix klassax.–L, 1979
- 2.Boskis. R.M. Gluxiye i slaboslyishaishiye deti. M., 1983 g.
- 3.Zykov. S.A. Metodika obucheniya gluxix detey yazыku.–M, 1999
- 4.Koltunenko, I.V. Noskova. L.P Obuchenije russkomu yazыku a 5-7 klassax shkoly gluxix.–M, 1999
- 5.Nudelman V.A. i dr. Osobennosti psicheskogo razvitiya guloxogo rebenke. M: 1995 g.